

MAQOM SAN'ATI VA UNING MAKTAB DARSLIKLARIDA O'QITILISHINING MAQSAD MAZMUNI

Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika psixologiya va musiqa
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Pochta manzili: karsiyevamaftuna@gmail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek milliy merosi bo'lgan maqom san'ati haqida so'z boradi. Sharq xalqi maqom musiqasida asosiy yo'nalish va unda aks etgan mazmun mohiyati ochib bergan. Boshlang'ich sinf va yuqori sinf darsliklariga maqom san'atining kiritilishining asosiy maqsad mazmuni haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar.** Maqom, shashmaqom, san'at, sharq xalqlari, boshlang'ich sinf, yuqori sinf, musiqiy qobiliyat, badiiy did, Raga, Nuga, Kavalli.*

***Аннотация.** В данной статье речь идет об искусстве макама, которое является национальным достоянием узбеков. Восточные народы раскрывают основное направление в музыке макама и суть отраженного в нем содержания. Речь идет о содержании основного назначения введение.*

***Ключевые слова.** Маком, Шашмаком, искусство, восточные народы, начальный класс, высший класс, музыкальные способности, художественный вкус, Рага, Нуга, Кавалли.*

***Annotation.** This article is about the art of maqom, which is the national heritage of Uzbeks. Eastern people revealed the main direction in the music of maqom and the essence of the content reflected in it. it is about the content of the main purpose of the introduction of.*

***Key words.** Maqam, Shashmaqam, art, oriental peoples, primary class, upper class, musical ability, artistic taste, Raga, Nuga, Cavalli.*

Maqom san'ati o'zbek xalqining musiqiy ensiklopediyasidir. Unda xalqimizning qadimiy tarixi, ma'naviy dunyosi, badiiy falsafasi, ruhi mujassam. Shu bois necha asrdirki, maqom bebaho madaniy meros sifatida ardoqlanib kelmoqda. Dunyoda milliy maqomchilik an'analarini yarata olgan xalqlar sanoqli. Maqomni eshitganimizda qalbimizda ajib hislar uyg'onadi. Undagi dard, ohang, rang-baranglik ruhiyatimizga sokinlik olib kiradi. Musiqaning ta'siri, sehri ana shunday qudratga eg Bugun mumtoz san'atimizni chuqur o'rganish, uning nozik sir-asrorlarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Prezidentimizning 2017-yil 17-

noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo‘ldi. Bu hujjatlarda maqom san’atini yanada rivojlantirish va uni butun dunyo bo‘ylab tan olinishiga imkon yaratish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan

Maqom san’atini yoshlarga singdirish, uni tinglay olish qobiliyatini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

– Maqom san’atini yoshlar ongiga singdirib borish va ularda maqom namunalarini tinglash qobiliyatini shakllantirish juda muhim. Yuqorida nomi keltirilgan qarorda belgilab o‘tilgan vazifalar asosida maqom san’atini yoshlar ongiga sindirish va ularni maqom san’atiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish maqsadida O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etildi.

Markaz tomonidan yillik reja asosida joylarda, ta’lim muassasalarida maqom kechalari o‘tkazish va maqom san’ati mazmun-mohiyatini hamma tushunadigan tarzda targ‘ib qilish masalasi ko‘tarilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tomonidan yoshlarni psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, maqom namunalarini saralab olish va ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida foydalanish uchun uslubiy qo‘llanmalar va maqom alifbosi darsliklari ishlab chiqarilmoqda. Yangi o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy ta’lim muassasalarigacha darslik va audio disklar orqali darslar kiritilishi rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan bu qadimiy san’at jahon musiqashunoslarining doimiy e’tiborida bo‘lgan. Sababi, bu hududlardan yetishib chiqqan Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk mutafakkirlarning adabiy merosini maqom san’atidan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ana shu jihatdan, jahon adabiyoti va san’atida mushtarak g‘oyalar va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida maqomning o‘rni beqiyos. Bugun o‘ndan ortiq mamlakat o‘z maqomiga ega. Hindistonning “Raga”si, Pokistonning “Kavalli”si, Eronning “Dastgoh”i, Jazoirning “Nuga”si, Ozarbayjon va armanlarning “Mug‘om”i, arablarning “Maqom”i, uyg‘urlarning “Muqom”i bor. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Maqom san’ati ko‘p asrlardan buyon o‘z mohiyati, badiiy qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda maqomlar nafaqat Sharq musiqasi madaniyati, balki insoniyat qo‘lga kiritgan ulkan hodisadir. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, ruhiyatni nafs to‘siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da’vat etuvchi ma’naviy navolarimizdir. Maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lib, avloddan avlodga —ustoz-shogird an’anasi orqali meros bo‘lib o‘tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir.

Kasbiy musiqaning shakllanishida saroy madaniyati muxim o‘rin tutgan bo‘lib, xalq orasidan yetishib chiqqan istedodli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bo‘lib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san‘ati bilan asosan kasbiy musiqachilar maxsus shug‘ullanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi O‘zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud bo‘lib, ular quydagicha nomlanadi:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari)
2. Xorazm maqomlari
3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari

Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan. Shashmaqom oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatadi. Maqom cholg‘u kuy va aytim (ashula) turkumlari shu mukammal pardalarning ma‘lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi. Shashmaqomdagi xar bir maqom ikki yirik bo‘limdan-cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llaridan iborat bo‘lib, ularni —ustoz shogirdl an‘anaviy maktabida tahsil ko‘rgan malakali kasbiy cholg‘uchi va ashulachi-xofizlargina ijro etadilar. O‘tmishda bastakorlarning faoliyati turlicha bo‘lgan. Dastlab ular maqomlar va xalq musiqa asarlari asosida betakror kuy va ashulalar yaratganlar.

Yana, bastakorlar maqom pardalari negizida yangi-yangi yo‘llar, yaratganlar, tayyor kuyga yangi pardalar kiritib, yoki uni boshqa doira usuliga tushirib, jozibali va mukammal asarlarni yuzaga keltirganlar. Binobarin, she‘r matnlarining ashulaga shaklan hamda mazmunan moslab tushirilishiga ham alohida ahamiyat berganlar. Shashmaqomdagi turkumlarning yuzaga kelishiga bastakorlardagi bunday tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. Ba‘zan sho‘balar, masalan, Buzruk maqomidagi Talqini

Uzzol, Nasri Uzzol va Ufari Uzzol qismi ohangdosh ashulalar bo‘lib, faqat doira usuli va she‘r o‘lchovidangina farq etadi. Shashmaqom turkumlari ko‘pincha ashulalarning yangidan-yangi variantlarini yaratish bilan takomillashtiriladi. Shunday qilib, Shashmaqom o‘tmishdagi bastakorlik an‘analarining mahsuli sifatida, maqomchilikdagi boy tajribaga asoslangan holda yuzaga keldi. Keyingi ikki asrdan ko‘proq, o‘tgan davr ichida, bir sozanda – xonandadan ikkinchisiga og‘zaki tarzda o‘tib kelishi jarayonida Shashmaqom tobora juda katta o‘zgarishlarga uchradi va bizgacha boyib bordi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun kiritilgan maqom san‘ati haqidagi nazariy ma‘lumotlar va ijro etish usullari o‘quvchilarda qadimiy san‘at uchun qiziqish bildiradi. Maqom san‘ati faqatgina yosh ulug‘ tinglovchilar uchungina emas ekanligi tinglovchilar yoshini ‘yoshartirishga’ va ommaviy madaniyatni oldini olishga ancha xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oqilxon Ibrohimov San’atshunoslik fanlari doktori, professor ‘Maqomlar tarixiga doir’

2. MAKTABGACHA TA’LIMDA TIZIMIDA MUSIQANING TA’LIM TARBIYADAGI AHAMIYATI Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

3. GENERAL DIDACTIC PRINCIPLES OF MUSIC LESSONS IN ELEMENTARY GRADES Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzakh State Pedagogical University. Intern-teacher of the department of distance education in the fields of pedagogy, psychology and music Mailing

4. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA DARSINING UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrası stajyor-o‘qituvchisi .

5. BOLALAR XOR JAMOALARI BILAN ISHLASHDA O‘QITUVCHINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI YOKI MUHIM JIHATLARI. .Sunnatova Sevara Islom qizi.Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

6. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHDA MUSIQA O‘QITUVCHISIGA QO‘YILGAN TALABLAR .Sunnatova Sevara Islom qizi.Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrası stajyor-o‘qituvchisi .